Xar bir variant uchun amaldagi ishchilar soni aniqlanadi: $K_r = R/N_{np}$

Xisobdagi butun ishchilar sonini aniqlashda natija butun raqam xolda kiritiladi.
Yani ($1 < 1.15 < 2$)

Xar bir ishchini ish bilan bandligi 10-15% oshishi kerak emas. Ishchilarni ish bilan bandligi quyidagicha aniqlanadi.

$$K_z = K_r / K_f$$

Xar bir jarayon uchun ish xaqini yo'qotish quyidagicha aniqlanadi:

$$P_{zp} = (K_f - K_r) * S_t$$

Xulosa jadvali ko'rsatkichlari quyidagicha bajariladi:

$$\sum K_z = \frac{\sum K_r}{\sum K_f}$$

Smena quvvati bo'yicha xar bir ishchini ish unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$P_T = \frac{R_{smen}}{\sum K_f} \times 100$$

Oqimni mexanizatsiya foizi K_{mex} quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{mex} = \frac{\sum K_{r.m}}{\sum K_{f.m}} \times 100$$

Xar bir analiz qilinib va oqimni maqsadga muvofiq quvvati aniqlanadi.

Oqimdagi ishchilar kuchi va uskanalar soniga extiyojni xisoblash

Poyabzal yig'ish oqimini maqsadga muvofiq ishlab chiqarish quvvati aniqlangandan so'ng tanavor tikilishi va poyabzal yig'ish oqimi uchun ishchilar va uskunalar extiyoj aloxida aniqlanadi.

Ishlab chiqarish oqimlar va ishlab chiqarish tsexlar komponentlari

Poyabzal ishlab chiqarishda konveyer orqali ishni tashkil etilish keng tarqalgan. Hozirgi paytda poyabzal ishlab chiqarishni konveyersiz sistemasi ko'proq ko'llanilmoqda. CHet el firmalari poyabzal ishlab chiqarishni RINK sistemasi qabul qilingan.

Transport qurilmalari va tanovar va poyabzal yig'ish uskunalari komponentlarini tuzish.


Loyixalanidagi tsexni razmeri yig'uv patoklar uzunligi orqali aniqlanadi.

Buning uchun millimetr qog'ozda uskunalarni tartib bo'yicha konveyer oqimi bo'yicha 1:100 masshtabda joylashtirib chiqiladi.


Uskunalar komponentlari oralig'i quyidagicha aniqlanadi.

- Qulda bajariladigan ish o'rinlari va tikuv mashinalari o'rinlari oralig'i 0.7-0.8 metr
- Qo'lda bajariladigan ish o'rinlari va uskunalarda bajariladigan ish o'rinlari oralig'i 0.8-0.9m
- Uskunalar orasidagi masofa 1m.


Agar ishchilar orqama-orqa ishlash o'rinlari 1.2m



a) uskunalarni bir tomonlama joylashtirish




b) uskunalarni vertikal yopiq konveyr bo'ylab joylashtirish



Uskunalarni 2 tomonlama gorizantal yopiq konveyr bo'ylab joylashtirish.

Gorizantal yopiq konveyrlarda ish o'rinlarini joylashtirish qulaydir.

Konveyr bo'ylab uskunalarni joylashtirish turli ko'rinishlarni ko'rib chiqamiz.



TSexni komponovkasini olishda masalan yig'uv patokini bir tomonlama joylashtirish 170 m bo'lsa unda ustunlarni ikki tomonlama joylashtirishda xar bir konveyr uchun 4 bo'limga bo'linadi. Xar bir konveyr uzunligi 42.48 m tashkil etadi.

rizantal yopiq konveyr, tanavor va poyabzal yig'ish oqimini uzatgich orqali bog'langani.

Tanavor va poyabzal konveyrlari bir tomonlama uzunligi quyidagicha aniqlanadi.

$$h_3 = \frac{(0.5 + 0.7)n}{2} + d_{zv}$$

bu yerda: n – ish o'rinlari soni

0.5 – tikuv uskunalari stoli eni, m

0.7 – ish uskunalari orasidagi masofa, m

d_{zv} – konveyrdagi yulduzcha diametri, m

$$L_{sb} = \frac{L_l}{2} + d_{zv}$$

Bu yerda: L_l – lenta uzunligi

Vertikal yopiq qobiqlik konveyrlar xuddi gorizantal yopiq qobig'lik konveyrlar singari lenta uzunligini ikkiga bo'lingani deb qarash mumkin.

Uskunalar komponovkasi konveyr uzunligiga va seriyadagi lentalar sonini aniqlash bilan tugallanadi.

Misol uchun, gorizantal yopiq konveyr uzunligi 35.4 m bo'lsa, uzatuvchi seriyani 12 lyulka 0,3 m oralig'ida bo'lsa, unda seriya uzunligi $12 \cdot 0.3 = 3.6$ m tashkil etadi.

Agarda yulduzcha diametri $d_{zv} = 0.5$ m bo'lsa, konveyr uzunligi quyidagicha aniqlanadi. $35.4 \cdot 2 + 0.5 \cdot 3.14 = 72.37$ m

Liniyalar oralig'i 0.3m bo'lsa liniyalar soni zanjir uzunligi bo'yicha quyidagiga teng. $72.37 / 0.3 = 241.2$

Umumiy liniyalar soni juft bo'lishi kerak, shuning uchun 240 lyulkadan iborat.

SHunda konveyr zanjirining uzunligi quyidagiga tengdir $240 \cdot 0.3 = 72$ m.

Konveyr yon tomonlariga uskunalarni o'rnatish quyidagiga tengdir. $(72 - 1.57) / 2 = 35.21$ m

Xulosa qilib konveyr uzunligi 35.4m edi maqsadga muvofiq konveyr uzunligi $35.4 - 35.21 = 0.19$ ni tashkil etadi.

Demak 0.19ga qisqartirish mumkin.

Transport qurilmalari va uskunalari komponovkasida quyidagi muammolarni yechish zarur.

Yani poyabzal yig'ish potokida poyabzalni qolipdan yechgandan so'ng ish joyiga qaytishi.

Agarda vertikal yopiq-qobig'lik konveyrda qolipni pastki uzatuvchi qismidan qaytariladi. Gorizantal yopiq konveyrlarda qoliplarni pastki bo'limida yoki konveyrda maxsus ilmoqlar orqali qoliplar ish joyiga qaytadi. Yopiq qobig' tanlashda faqatgina qoliblar soni ishlab chiqarish seriyaga mos kelishi emas balki balki to'ralik assortimentini xam nazarda tutish zarurdir.

Qolib xarakati yopiq tsikli afzalliklari quyidagilardir.

- Ish vaqtini tejash.
- Qoliblarni saklash
- Konveyrdan qoliblarni olib va qo'yish jarayoni qisqaradi.

Poyabzal oqimi komponovkasini tuzishda loyixalanayotgan tsexni maydoniga korxona bo'yicha yuk oqimlarini xarakatini inobatga olib optimal joylashtirish variantinii aniqlash zarurdir.


Yani tsexdagi yarim tayyor maxsulotlar albatta konveyr uzatish yulagiga yaqin joylashtirish.

Tayyor poyabzallarni uzatuvchi konveyrlar orqali pastki tayyor poyabzallar omborxonalarigauzatiladi.

Yarim tayyor maxsulot omborxonalari, poyabzallarni qutilarga joylashtirish joylari tsexni asosiy qirish qismidan narida joylashtirish zarurdir, chunki ishchilar o'z ish joylariga bermalol borishlari zarurdir.

Agarda konveyr joylashishi yo'lida ustun to'g'ri kelib qolsa, ustunni tashlab o'tish zarurdir.

Masalan.



Biz bilamizki tsexda bir nechta oqimlar bo'lishi mumkin shuning uchun oqimlar komponovkasini joylashtirish murakkabdir shuning uchun quyidagicha talablarga amal qilish zarurdir.

- Barcha konveyr oqimlari uzunligi bir-biriga nisbatan yaqin bo'lishi.
- Umumlashgan yarim tayyor maxsulotlar xarakatlarni tanlash.
- Yarim tayyor maxsulotlirni va tayyor buyumlarni ishlab chiqarishni birlashtirishdan iboratdir.

Konveyr uzunligi 48metrni tashkil etadi, maqsadga muvofiq – 42metr .

Agarda konveyr oqimining uzunligi 48 metrdan oshsa, konveyrni ikkiga bo'lish zarurdir.

SHuni nazarga olish kerakki qisqa konveyr oqimlarini loyixalash maqsadga muvofiq emas, bu ishlab chiqarish maydonini sarfiga olib keladi. Yig'uv oqimlarini 2 bo'limga bo'lishda bir turdagi konveyrlar tanlanadi. Tanavorni tikish va poyabzalni yig'ish tsexlari komponovkasini yaratishda tanavorni tikish bo'limi yig'ish bo'limidan 2, 3 barobar kichik bo'lsa, tanavor yig'ish potogi uskunalarni bir tomonlama vertikal yopiq qobig'li konveyrlarga joylashtiriladi. (masalan. Rant yelim usulida birlashtirilgan ayollar tuflisi)

Ish joylarini planlashtirish asosiy muammolardan biridir. Xar bir ish joylarini planlashtirishda transport qurilmalariga iloji boricha yaqinroq joylashtirish zarur. Inson salomatligiga zararli materiallar qullaniladigan jarayonlarni boshqa jarayonlar xafvsizligini taminlashdan ishlab chiqarish maydonidan maqsadli foydalanishdan iboratdir.

Assortimentlarni tanlash va izoxlash

Loyixalanayotgan korxona assortimentlarini tanlashda va izoxlashda quyidagilarni nazarda tutish zarurdir.

- Ishlab chiqariladigan poyabzal modellari konstruktsiyasi modaga javob berishi
- Qo'llaniladigan materiallarni mavsumga mos kelishi, materiallar assortimentini keng qo'llash.
- Loyixalanayotgan poyabzal konstruktsiyasi texnologiyaga mos kelishi, yangi ishlab chiqarish texnologiyani joriy etish bilan ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish.
- Poyabzal massasi kamligi, egiluvchanligi yuqoriligi bilan poyabzal qulayligi.

- Bir jinsga mansub poyabzal konstruksiyasini texnologiyasi va maxsuslashtirilgan ishlab chiqarishni inobatga olib keng poyabzal assortimentini ishlab chiqarishdan iborat.

Poyabzal detallarini tayyorlov tsexlarini loyixalash.

Tayyorlov tsexlari barcha yig'uv tsexlariga o'z vaqtida, uzluksiz detallar bilan taminlab beradi.

Poyabzal tsexida ishni tashkil etishda faqatgina poyabzal ustki va taglik detallarni yig'uv tsexlariga taminlab berishgina emas, balki ishlab chiqarilayotgan buyumni sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ustki va taglik detallari bichuv tsexlarini quvvati korxonadagi barcha yig'uv tsexlari quvvatlarini yig'indisidan iboratdir. Tayyorlov jarayonlarni markazlashtirish texnik yuksalishiga asosiy omil xisoblanadi.

Ustki detallarni bichish tsexi

Bichish tsexini asosiy vazifalari

- Materiallar ishlab chiqarish partiyalarini qabul qilish
- CHarm, to'qima va suniy materiallarni komplektda bichish
- Ustki, astarlik charmlar, to'qima va suniy materiallar sifatini tekshirish.
- Detailarni tamg'alash
- Detailarni standart ishlab chiqarish seriyalari bo'yicha juftlash.
- Komplekt ishlab chiqarish seriya detallarni ishlab chiqarish tsexiga uzatish.

Bichish tsexi quyidagi bo'limlardan iboratdir, taqsimlash bazasi, materiallarni bichish bo'limi, detallarni juftlash ombori, keskich ombori.

Materiallarni taqsimlash bazasi

Taqsimlash bazasini vazifalari quyidagilardan iboratdir

- Materiallr ishlab chiqarish partiyalarini qabul qilish
- Materiallar ishlab chiqarish partiyalarni tekshirish va jadval bo'yicha bichuvchilarga taminlash va saqlash.
- Albatta materiallarni saqlash uchun stellaj o'rnatilgan bo'lishi zarur.

Materiallarni bichish bo'limi

Ustki detallarni bichish jarayoni asosan PVG -8-2-0, ko'p qavat va suniy materiallarni POTG-12-0 presslarda bajariladi. Xozirgi vaqtda POTG-40 va POTG-20 presslari keng qullanilmoqda.

Detallarni tikish avtomatlashtirilgan presslar orqali boshqaruv orqali press avtomatlar qo'llaniladi. Bunday presslarni quyidagi firmalar "SHYoN"(FRG) "Kompart"(GDR) DAKO (Belgiya) va Orlovdan ilmiy tekshirish institutida PVG-30-A pressi avtomat ishlab chiqilgan.


Poyabzal materiallardan foydalanish foizini oshirish uchun lazer nurlari yoki suv siqib chiqarish orqali materiallarni bichish ustida ishlar olib borilmoqda.


AQSH "Xagxes Eyrkraft" firma lazer uskunada dutallarni bichish uchun ishlab chiqaradiva EXM orqali bichish sistemasi tashkil qilish soxasida ishlar olib borilmoqda.

Institut Satra (buyuk Britaniya) materiallarni bichishni yuqori qo'llashi orqali suvni siqib chiqarish bilan materiallarni bichishni avtomatlashgan sistemasini ishlab chiqdi. Lazer nurlari orqali suvni siqib chiqarish orqali bichishdan avzalligi, ushbu sistemada qo'llashda materiallar kam deformatsiyalanadi.

Kamchiligi materiallar chetlari kuyishi bilan inson salomatligi zararli moddalar ajralib chiqadi.

Bichuvchini ish joyini tashkil etish.





Ustki detallarni bichish tsexida bir lyulkalik konveyrlar OTV – 2 va KLO – 2 asosan qo'llaniladi. Konveyr PRKV – 4, KRT – 1, KZL – 0, KZL-T – 0, K – 1.

Poyabzal ustki detallarini juftlash bo'limi vazifasi

Ustki va astarlik charmlarni juft standart ishlab chiqarish seriyalarda qabul qilishdan iboratdir. Yani charm detallarni tanlash, detallar standart ishlab chiqarish seriyalarini saqlash, ustki va astarlik charm detallarini standart ishlab chiqarish seriyalarini juftlashdan iboratdir. Bichilgan ustki va astar charm detallarni ishlov berish bo'limiga uzatiladi va ishlov berilgan detallar markaziy juftlash bo'limiga uzatiladi.

Keskichlar omborxonasi vazifasi

Keskichlarni saqlash, komplekt keskichlarni bichuvchilar ish joyiga berish, keskichlar qanday axvolda ekanligini nazorat qilish, keskichlarni oraliq ta'mirlashdan iboratdir.

Keskichlar stelajlarda buyumlar turiga qarab, razmeriga, modeliga va shakliga qarab saqlanadi.

Stellaj xar bir qutisida bir razmer barcha detallar keskichlari joylashadi.

Ustki detallarni bichish tsexini loyixalash.

Bir smenada bichish tsexini ishlab chiqarish topshirig'i barcha yig'uv tsexlari ishlab chiqarish topshiriqlari yig'indisi orqali aniqlanadi. Masalan;

Bichuv tsexini ishlab chiqarish topshirig'i bir smena uchun quyidagicha:

№	Poyabzal jinsi va turi	Qolip fasoni	Biriktirish usuli.	Juftda komplektlar ishlab chiqarish topshirig'i		
				Smenada	Kunlik	Yillik
1	2	3	4	5	6	7
1. 2.	Erkaklar qunjiz botinkasi	911274	elim	600	1800	

Poyabzal assartimentlar va bichish tsexi quvvati aniqlangandan so'ng, xar bir assartiment uchun 299 buyrug' orqali razmer va to'lalaik ossartimentlari aniqlanadi.

Poyabzal modellari pasportiga asosan ustki detallar struktura jadvali tuziladi.

№	Poyabzal jinsi va turi	Qolip shakli	Biriktirish usuli	Poyabzal ustki detallar materiali					
				Ustki qismi	Asosiy astar	Oraliq astar	Yumshoq qo'yma patak	To'ldirgich	Va xok azo
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
	Erkaklar qo'njsiz botinkasi	911274	Elimlama	Xrom charm	tiksarja	bo'z	Astar charm	Karton	

Poyabzal ustki detallar komplekti o'rta xisobdagi maydonini xisoblash.

Biz bilamizki tashqi, ichki va oraliq detallarni o'rtamiyona maydoni quyidagicha aniqlanadi, shu bilan komplektidagi detallar o'rtacha xisobdagi maydoni aniqlanadi va jamlovchi jadvalga kiritiladi.

№	Poyabzal jinsi va turi	Detallar nomi	Poyabzal ustki detallar komplekti maydoni		
			Quyidagi razmerlar		Urta xisobdagi razmer
			Kichik	Katta	
1	2	3	4	5	6
1.	Erkaklar qo'njsiz botinkasi	Betlik yondastak tilcha OTK	260	265	263.8
			12.63	13.02	12.92

Detallar komplekti xar bir assartiment uchun materiallar turi bilan aloxida aniqlanadi.

Bichish kombinatsiyasini tanlash va aoslash.

Kombinatsiya tanlashda asosiy detallar kombinatsiyasini charmni sirt qismi maydoni solishtirma ko'rsatkichiga mos kelishi maqsadga muvofiqdir.

Xar bir poyabzallar uchun mas'ul detallar komplekti maydonlari foyizdagi farqi aniqlanadi.

1. Erkaklar qo'njsiz botinkasi.

$$R = \frac{\sum S_{otv}}{F_{sr.vzv}} * 100 = \frac{6,64}{12,92} * 100 = 51 \%$$

2. Maktab bolalar qo'njsiz botinkasi.

$$R = \frac{\sum S_{otv}}{F_{sr.vzv}} * 100 = \frac{5,56}{10,59} * 100 = 52 \%$$

bu yerda $\sum S_{otv}$ – komplektdagi mas’ul detallarni urta miyona maydoni yig’indisi. $F_{sr.vzv}$ – komplektni o’rta miyona maydondagi xisobi.

Barcha assortimentlar uchun mas’ul detallar solishtirma maydoni aniqlangandan so’ng quyidagi jadvalga kiritiladi.

Smena topshirig'i bo'yicha mas'ul va mas'uliyati kamrok detallar komplektlari maydoni bo'yicha farqi.

[illegible]

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Poyabzal modellari kombinatsiyalarini tanlashda albatta bir turdagi materialdan bichish, material rangiga etibor berish zarur.

Kombinatsiya poyabzal jinsi, turi va qo'llanilishiga qarab aniqlanadi. (misol, botinka+qo'njsiz botinka, ayollar va qizlar)

Kombinatsiyadagi asosiy detallarni foyizdagi farqini quyidagicha aniqlanadi.

$$S = \frac{\sum otvi * P_{emi} + \sum otvj * P_{emj}}{F_i + P_{emi} + F_j + P_{emj}} * 100$$

bu yerda $\sum otvi \sum otvj$ – ikki turdagi poyabzal kombinatsiyasi mas'ul detallar maydonlari yig'indisi (I,j). $P_{emi} P_{emj}$ – ikki turdagi poyabzal kombinatsiyasi uchun smena topshiriqlar (I,j). $F_i F_j$ – ikki turdagi detallar kombinatsiyasi detallar komplekti o'rta xisobdagi maydoni (I,j).

CHarmni sirt qismi iaydonini taxminan 50% ni tashkil etadi. Demak charmdan ratsional foydalanish uchun bu ko'rsatkichga yaqin natija chiqish zarurdir.

Smena topshirig'i bo'yicha materiallarga extiyojni xisoblash.

Loyixadagi materialdan foydalanish “sanoat normasi” dan foydalailadi, bunda albatta material turi, modeli, navi orqali aniqlanadi. Poyabzal ustki detallari charmdan kombinatsiyada bichiladi. Xar bir poyabzal uchun charmdan foydalanish foyizi turlichadir.

SHu sababli materiallarga extiyoj “brutto”ni o'rta xisobdagi foydalanish foyizi aniqlanadi.

$$R_{Sr.vzv} = \frac{F_{H1} + F_{H2}}{F_{br1} + F_{br2}} * 100$$

$F_{H_1}F_{H_2}$ – bir va ikkinchi turdagi poyabzallar detallari komplekti uchun smena bo'yicha bichilgan materiallar maydoni "netto". $F_{br_1}F_{br_2}$ - bir va ikkinchi turdagi poyabzallar detallari komplekti uchun smena bo'yicha umumiy materiallar maydoni "brutto".

Ustki charm materiallariga bo'lgan extiyojni quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$F_{br} = \frac{F_{H_1} + F_{H_2}}{R_{sr.vzv}} * 100$$

Agarda biror poyabzal kombinatsiyada bichilsa, charm extiyoji "brutto" quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$F_{br} = \frac{F_n}{R} * 100$$

Xisob ko'rsatkichlari quyidagi jadvalga kiritiladi.

№	Poyabzal jinsi va turi	Material nomi	Smena topshirig'i juft	Komplektidagi detallar o'rta xisobdagi maydoni Dm ²	Navi	Smena bo'yicha netto materiallar maydoni Dm ²	Foydalanish foyizi	O'rta xisobdagi foydalanish foyizi

CHarm astar, to'qima va suniy materiallarga extiyoj xam shu singari xisoblanadi. Smena bo'yicha ustki materiallarga extiyoj quyidagi jadvalga kiritiladi.

№	Materiallar nomi	Materiallarga extiyoj	
		Smena bo'yicha	Yil bo'yicha

		Dm ² ,pogon/m	CHarm yoki o'ram	Dm ² ,pogon	CHarm yoki o'ram
1					

Materiallarni bichish texnologik jarayonlarini tuzish.

Materiallarni bichish texnologik jarayonlari metodik qo'llanma va tipovoy qo'llanma, ilg'or korxonalar ishini o'rganishga asoslanib tuziladi.

Xar bir texnologik jarayonlarni tuzishda albatta bichiladigan material turini xam inobatga olish xam zarurdir.

Materiallarni bichish metodikasini izoxlash.

Poyabzal ustki detallar uch usulda bichiladi.

Bir ishchi charmni bir o'zi bichadi. (skvoznoy metod)

Bu usulda detallarni sifatini oshirish javobgarligi ishchini o'z zimmasida bo'ladi va materiallardan foydalanish foyizi yuqoridir.

Tanlov usuli. (vibrochniy metod)

Bir ishchi faqatgina asosiy detallarni bichadi, mutaxisligi pastroq ishchi esa mas'ulligi kamrok detallarni charmni qolgan joyidan bichadi. Turli bichuvchilar bichishi sababli charmdan foydalanish kamdir detallarni sifati talabga javob bermaydi.

Bir ishchi detallarni o'zi bichadi va boshqa ishchi mayda yordamchi detallarni bichadi. (nepolnoy skvoznoy metod)

Bu usulda xam charmdan foydalanish foyizi kamroqdir, lekin tanlov usulidan bir muncha yuqori.

Poyabzal ustki detallarini bir ishchi bichishi asosiy xisoblanadi. CHunki poyabzal jufti detallari rangi, mustaxkamligi cho'zilishi, bir xil bo'lishi kerak.

CHarm materiallar asosiy qismlaridan to'la foydalanish uchun, turli ko'rinishdagi poyabzallarni qo'shib bichish maqsadga muvofiqdir.


Keskichlar plita va uskunalarni izoxalash.

Ustki detallarini bichish tsexi uchun asosiy uskuna press xisoblanadi. Asosan PVG – 8-0, PVG – 8-2-0 elektrogidravlik preslar qo'llaniladi. Ustki detallar bichish keskich orqali belgilanadi. Keskichlar U7 qalinligi 6mm po'latlardan tayyorlanadi.

Xozirgi paytda maxsus list po'latlaridan tayyorlangan keskichlar qo'llaniladi. CHarmni bichadigan keskich balandligi 22, 30 mm, ko'p qavat to'qima va suniy materiallar uchun 22-32mm tashkil etadi.

CHaxlash burchagi $18 - 22^\circ$

Og'ish burchagi $25 - 30^\circ$



Bichish uchun plitalar yani metall, plastmassa, yog'och, kartondan tayyorlanadi. CHarmdan detallar bichilganda asosan yog'och plitalar razmeri 550x420x130mm, maxsus karton plitalar 650x420x130m, polivinilxlorid 500x420x30mm, metal plita razmerlari 550x350x60mm

Materiallarni bichish uchun ishchilar va uskunalar extiyojini xisoblash.

Poyabzal ustki detallarini bichish uchun ishchilargi extiyojini 2 variant bo'yicha xisoblash mumkin.

- Poyabzal ustki detallari komplektini oldindan tanlangan kombinatsiyada bichish.
- Poyabzal ustki detallar komplekti aloxida kombinatsiyasiz bichish.

1 variant bo'yicha xisoblashda quyidagi ko'rsatkichlar inobatga olnadi.

R_1 – kombinatsiyaga kiruvchi bir poyabzal uchun smena topshirig'i.

NV_1 – bir turdagi poyabzal detallarini charmdan bichish uchun ish bajarish miqdori.

R_2 - kombinatsiyaga ikkinchi poyabzal uchun smena topshirig'i.

NV_2 – ikkinchi turdagi poyabzal detallarini charmdan bichish uchun ish bajarish miqdori.

T_{si} – smena vaqti 480 min.

Kombinatsiyada bichuvchilarni sonin xisoblash quyidagi tartibda bajariladi.

1. Kombinatsiyaga kiruvchi 2 turdagi poyabzallar bichma komplektlari farqini aniqlaymiz.

$$m_1: m_2 = P_1: P_2$$

2. Kombinatsiyaga kiruvchi birinchi va ikkinchi turdagi poyabzal detallari komplektini bichish uchun vaqt meyorini aniqlaymiz.

$$N_{vr_1} = \frac{T_{si}}{NV_1}$$

$$N_{vr_2} = \frac{T_{si}}{NV_2}$$

3. Kombinatsiyaga kiruvchi detallar komplektini bichish uchun umumiy vaqt meyori quyidagicha aniqlanadi.

$$N_{vr_{komb}} = N_{vr_1} * m_1 + N_{vr_2} * m_2$$

4. Smena bo'yicha bir bichuvchi bichadigan kombinatsiyalar sonini aniqlaymiz.

$$P_{\text{komb}} = \frac{T_{si}}{N_{vr_{\text{komb}}}}$$

5. Smena bo'yicha bir bichuvchi bichgan birinchi va ikkinchi poyabzal bichmalari komplekti sonini aniqlaymish.

$$K_1 = P_{\text{komb}} * m_1$$

$$K_2 = P_{\text{komb}} * m_2$$

6. Smena bo'yicha bir bichuvchi bichadigan komplekt bichmalar sonini aniqlash.

$$K = K_1 + K_2$$

7. Kombinatsiyada bichish uchun bichuvchilar soni quyidagicha aniqlanadi.

$$A = \frac{R_1 + R_2}{K}$$

Ustki charm materiallarini bichuvchilar uchun topshiriq tuzish va keskichlarga extiyojini xisoblash.

Materiallarni bichish topshirig'i ustki va astar charmlar xar bir ishlab chiqarish partiyalaridan unumli foydalanishni inobatga olib tuziladi.

Charm maydonidan yuqori unumli foydalanish erishish asosan turli poyabzallarni ko'rinishi, gruppasi va razmerlarini kombinatsiyada bichish zarurdir. Misol uchun model turli bichmalarini kunda kiyiladigan turli bichmalariga 3:1 yoki 2:1 nisbatda bichish. Qo'njsiz botinka bichmalarini botinka bichmalariga 5:1 yoki 4:1 nisbatda bichish. Yosh bolalar poyabzal va ayollar poyabzali bichmalarini barcha gruppaga bichmalariga qo'shib bichish.

Erkaklar qo'njsiz botinka bichmalarini – yosh bolalar, bolalar, maktab yoshidagi bolalar, qizlar, o'smirlar va ayollar poyabzalt bichmalari bilan qo'shib bichish maqsadga muvofiqdir.

Bichish topshirig'ini detallarni maydoni va charmdan va astar charmdan foydalanish miqdori asosida xisoblanadi.

Xar bir topshiriqni tuzishda detallar komplektlari 3 razmerdan oshishi kerak emas, ish joyida minimal keskich soni bo'lishi kerak, bu albatta ish unumdorligiga olib keladi.

Ustki charm materallarini bichish ishlab chiqarish partiyalarini tuzish va keskichlarga etijoyini xisoblash.

№	Poyabzal jinsi va turi	Poya bzal razm eri	Razmer assortimenti		Kompl ektdagi detallar sof maydo ni Dm ²	Komplektd agi detallar sarf miqdori Dm ²	Bisuvchilar nomeri					
			100 juft uchun	Smena topshiri g'i			I			II		
							Juft poyabzal soni	Netto maydo ni Dm ²	Brutt o mayd oni Dm ²	Juft poy abz al soni	Netto mayd oni Dm ²	Brutto maydon i Dm ²

Keskichlar soni		
Komplektdagi	Qolipdagi soni	jami

Qo'shimcha keskichlarni berish tayyorlash shart emas, chunki ishdan chiqqan keskichlarni tamirlash ko'p vaqt egallamaydi.

Astar charm va o'ram materiallarni bichish uchun ishchilarga, keskichlar va

Astar charm materiallarini bichuvchilarga va keskichlari etijoyini aniqlash.

№	Poyab	Detal	Sme	Ish	Ishchilar soni	Rastovka	Keskichlarga etijoy
---	-------	-------	-----	-----	----------------	----------	---------------------

	zal jinsi va turi	lar nomi	na topsh irig'i	bajaris h miqdo ri	xisobd a	amald a	da razmerla r osni	Keskich lar komple kti soni	Kom p- dagi soni	Jami keskichlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11

Xuddi shu jadval ishlari suniy va to'qima o'ram materiallar xam xisoblanadi.

Amaldagi ishchilar sonini aniqlash xisobdagi ishchilar sonini tanlash bilan aniqlanadi, bunda albatta materialni turini inobatga olish zarurdir.

Poyabzal ustki detallariga ishlov berish texnologik jarayonini tuzish

Detallarga ishlov berish texnologik jarayonlar quyidagilar asosida tuziladi.

- Texnologik jarayonlarni loyixalash metodikasi
- Poyabzal ishlab chiqarish namunaviy texnologiyasi va detallarga ishlov berish yanitexnika va texnologiyaga asoslanadi.
- Korxona ishini o'rganish.

Ustki detallarga ishlov berish texnologik jarayoni quyidagi jadvalga kiritiladi.

№	Texnologik jarayonlar nomlanishi	Texnologik normativ	Yordamchi materiallar va asboblari
1	2	3	4

Ustki charm detallarga ishlov berish texnologik jarayonlarini izoxlash.

Ustki detallargi ishlov berish texnologik jarayonlardan birinchisi astar charmga artikul tamg'alash. Tamg'ada quyidagilar belgilanadi.

- Poyabzal partiya nomeri, shunga qarab poyabzal ishlab chiqilgan muddati belgilanadi, artikul, razmer, to'lalilik va jufti ko'rsatiladi.

Buning uchun KDV markali uskuna qo'llaniladi yoki 06049/3 "Kovo" uskuna sovuq yuzani ishqash bilan belgilanadi.

- SHundan so'ng ASG – 13 uskunasi detallarni ko'rinadigan chetki qismlarini ta'mirlash jarayoni bajariladi.

Jarayondan maqsad- detalni tikish, ag'darish, kuydirish, bukish jarayonlari oson bajariladi.

Detailarni kirgogini kiya kilib tushirish jarayoni ichki tomondan bajariladi.

Bukish jarayoni tushirish eni $7\pm 1\text{mm}$, ag'darish jarayoni uchun tushirish eni $10\pm 2\text{mm}$, kuydirish uchun 2 ± 0.5 .

Detailarni ko'rinadigan chetki qismlarini kuydirish va detallar chetini issiqlikda bukish

Mustaxkam materiallarni qalinligi 1.5mm yani (virostok, polukojnik) detallarini kuydirish mumkin. Uncha mustaxkam bo'lmagan materiallar opoyka, shevro, shevret, zamsha, velyurdan bichilgan detallarga kuydirish jarayoni bajarilmaydi.

Juda mustaxkam bo'lgan materiallar uchun kuydirishga mansub bo'lgan issiq bukish yani chetki qismi 180° ga bukiladi. Bu jarayonni bajarish uchun modellashtirilgan 333PMZ, OKV, uskunalari qo'llaniladi.

Poyabzal ustki detallari qalinligi bo'yicha tekislash

Barcha charm detallar albatta qalinligi bo'yicha tekislash poyabzal ishlab chiqarish texnologik normativiga asosan bajariladi.

Asosan 06020/R₄ uskunasi qo'llaniladi.

Detallarni boshlangich qalinligi mm	Tekislangandan so'ng qalinligi, mm	
	Barcha asosiy detallar	Tilcha, klapan, qoplama, boshqalar.
0.9-0.9	Xrom charm detallar 0.7	0.4
1.0-1.2	1.1	0.5
1.3 dan qalin	1.4-1.5	0.6
1.5 dan qalin	1.7	0.6
	Yuft charm detallar	
1.5-1.8	1.7	1.0
1.8-2.2	2.0	1.1
2.2-2.3	2.5	1.2
	Suniy charm detallar	
1.1-1.7	-	0.6

Detallarga gul tushirish

Ishlab chiqarilayotgan poyabzal sifatini oshirish va bezash uchun bajariladi. Gul tushirish 05020/R₄ pressida plita orqali 80-150°, 5-30 bosim ostida bajariladi.

Perforatsiya – ustki detallarini bezash uchun bajariladi. Perforatsiya bir muncha detalni mustaxkamligini kamaytiradi. SHu sababli rasm, teshiklar razmeri normativga asoslanib belgilanadi.

- 0.8-1.0 mm teshiklar markazidan 1mm-2mm gacha 6-8 mm tashkil etadi.

Detallarni perforatsiyalash 06066/R₁, 06045/R₁ uskunalarida bajariladi.

Ustki detallarga ishlov berish jarayonlari yakuniy varianti tanlangandan so'ng ishchilar va uskunalarga extiyoji aniqlanadi va quyidagi jadvalga kiritiladi.

Ustki detallarga bichuv tsexi bo'yicha ishchilar va uskunalarga extiyojini

Ma'ruza rejasi:

1. Ustki detallarga bichuv tsexi bo'yicha ishchilarga extiyojini xisoblash.
2. Ustki detallarga bichuv tsexi bo'yicha uskunalarga extiyojini xisoblash.

Ustki detallarga bichuv tsexi bo'yicha ishchilar va uskunalarga extiyojini xisoblash.

№	Jarayonlar nomi	Detallar nomi			Ish turi	Razryad	Smena programmasi	Ish bajarish miqdori		Ishchilar soni	Uskunalar soni
							Xisobda	Amalda	Amalda	Qo'shimcha	Jami
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1.	Bichilgan detallarni konveyrga uzatish	Barcha charm detallar	R	3	4350	5000	0.87	1	1	-	1
2.	Ustki detallarni qalinligi bo'yicha tekislash		M	3	6000	7000	0.87	1	1	1	2
3.	Ustki va astar charm detallarni ko'rinadigan chetki qismlarini tushirish		M	3	6550	1200	5.46	5	5	1	6

Uskunalarga tarif				
Ishlab chiqarilgan korxona	Nomlanishi	O'lchami		Elektrodvigetel quvvati
		Old tomoni	Yon tomoni	
13	14	15	16	17
FRG	eT-B	800	450	
	VAF – 470 fortuna	1600	1000	
	5– RZ	1050	540	

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
4.	Ustki detallarni bezash		M	2	1100	1700	0.65	1	1	-	1		PPP- 45-0	1020	855	
5.	Ustki		M	3	1000	1600										
6.	detallarga gul tushirishsh	Yon dastak	M	2v	3850	1400	2.75	3	3	-	3		KDV- 1	700	750	
7.	CHarm astarga artikul tamg'alash	Yumshoq patak	M	2v	3850	1500	2.57	3	3	1	4		KDO- 1	880	500	
8.			R	3	7700	2300	3.17	3	3	-	3			800	450	

9.	Qo'yma patakga korxona markasini tamg'lash		R	2	7300	2300	3.17	3	3	-	3		ST-B			
10	Detallar sifatini nazorat qilish															
11	Detallarni juftlash bog'lash															
							Σ	Σ	Σ	Σ	Σ					

Poyabzal taglik detallarini bichish tsexini loyixalash.

Ma'ruza rejasi:

1. Taglik detallarini bichish tsexi.
2. Materiallarni taqsimlash bazasi.
3. Taglik materiallarini bichish bo'limi.
4. Oraliq juftlash bo'limi.

Bichish tsexining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir.

- Bikir charm va suniy charm materiallarini omborxonadan qabul qilib olish.
- Bikir va suniy charm materiallarini berilgan topshiriq asosida assortiment bo'yicha bichish
- Taglik poyabzal detallarini ishlov berish oqimiga tuzilgan plan va ish jadvali asosida uzatish.
- Bichilgan va shakl berilgan detallarni texnologik jarayonlarda ishlov berish.

- Ishlov berilgan standart ishlab chiqarish seriyalarini markaziy juftlash bo'limiga uzatish.

Taglik detallarini bichish tsexi.


- Taqsimlash baza (raspred.baza)
- Materiallarni bichish bo'limi
- Oraliq juftlash bo'limi (PKO)
- Taglik detallariga ishlov berish
- Keskichlar omborxonasidan iboratdir.

Materiallarni taqsimlash bazasi.

Vazifasi tanlangan materiallar ishlab chiqarish partiyalarini qabul qilish, saqlash va bichuvchilarga topshiriq asosida ish bilan taminlanashdan iboratdir.

Taglik materiallarini bichish bo'limi.

Bikir charm va suniy charm materiallarini bichish PVG – 18-1-0 elektro gidravlik presslarida bajariladi.




Bichuvchining o'ng tomonida tumba joylashgan bo'lib bunda asosan keskichlar saqlanadi. Bundan tashqari ishchilar uchun ko'taruvchi stol moslashtirilgan.

Bikir charm va suniy materiallarni qabul qilishda bichuvchi xujjat bo'yicha charmlar soni va maydoni bo'yicha tekshirib oladi.

Bichish bo'limida bir nechta elektrogidravlik presslar PVG – 18-1-0dan iboratdir. Presslar konveyr yon tomonlariga maktab sistemada joylashadi.

Bichuv tsexini ishini tashkil etish uchun programmalashtirilgan konveyr PRKN – 4 konteyr sistemada va KRO – 9 konteynrsiz sistemada tanlash mumkin.

Konveyr KRO – 9 detallarni pachkada uzatish va chiqindilar yig'ish jarayoni bajaradi.



Konveyr uzunligi 55m, eni 890 mm.

Konveyr KVL – 0

Bu konveyr poyabzal detallarini konteyner yashiklarda xarakatga keltiradi yoki pachkadagi detallarni shu joydan finishga, bo'sh konteyner yashiklarini ish joyiga qaytaradi va ish joyidagi chiqindilarni yig'ib oladi. Bu konveyr vertikal yopiq qobig'li konveyr bo'lib, yuqori qatlamida bichuvchilarni ish joylaridan detallarni uzatadi, va bo'sh yashiklarni konveyrlar ish joyiga qaytaradi. Konveyr pastki qismi chiqindilarni ish joyidan yig'ib oladi.

Konveyr KVP – 0 yig'ma sektsiyali 7 dan 11 ish o'rni taminlay oladi. Konveyr uzunligi 30090dan 58000 mm gacha, eni 1490 mm tashkil etadi.

Oraliq juftlash bo'limi.

Asosiy vazifasi:

- Poyabzal taglik detallarini standart ishlab chiqarish seriyalarini materiallarni bichish bo'limidan qabul qilish.
- Poyabzal taglik detallarini standart ishlab chiqarish seriyalarini saqlash.
- Detailarni standart ishlab chiqarish seriyalarini ishlov berish bo'limiga uzatish uchun tanlash.

Oraliq juftlash bo'limida stelajlar o'rnatilishi maqsadga muvofiq. CHunki 2 smena uchun (zapas) saqlanish kerak. Katta detallar konteynr yashiklarda poyabzal turi va shakliga qarab standar ishlab chiqarish seriyalarini saqlanadi.

Mayda detallarn xam konteyner yashiklarida turi va shakliga qarab katta seriyalarda saqlanadi.

Tuzilgan jadval asosida standart detallar ishlab chiqarish seriyalarini tanlab olib ishlov berish bo'limiga uzatiladi.

Smena bo'yicha detallarni turi va shakli bo'yicha konveyrga uzatish tartibini dispetcher aniqlaydi.

Xar bir konveyr oqimlari bo'yicha detallarni juftlab boglanadi.

Poyabzal taglik detallariga ishlov berish bo'limi.

Ma'ruza rejasi:

1. konveyr oqimlari
2. Keskich omborxonalari.
3. Poyabzal taglik detallari o'rtamiyona maydonini xisoblash
4. Bikir charm materiallariga bo'lgan extiyojni xisoblagandan

Taglik detallar maxsus konveyr oqimlari texnologik jarayonlarda va uskunalarda ishlov beriladi. Ishlov berish uchun Ko – 19 va Ko – 14 ko'p liniyali konveyrlar qo'llaniladi.

Konveyr Ko – 19 ikki liniyali oqimidan iborat bo'lib, malum bir detal turi va shakli bo'yicha ishlov berish uchun uzatiladi. Konveyr Ko – 19 vertikal yopiq qobig'li konveyr bo'lib, detallar partiya bo'yicha konteyner yashiklar orqali barcha jarayonlarda ishlov beriladi. Konveyr uzunligi 38510mm, eni 1570mm.

Xar-bir ishchi malum bir turdagi, shaklli detallarga ishlov beradi, ishlov bergan detallarni konteyner yashiklarga joylanadi va keyingi jarayonga uzatadi.

Keskich omborxonalari.

Keskich ombori vazifasi:

- Keskichlarni saqlash
- Keskichlarni ish joyiga uzatish.

- Keskichlarni andozalar orqali tekshirish, saqlash, mayda ta'mirlash, keskichlarni ta'mirlashga berish, keskichlar xisobi

Omborxonaga maxsus stelajlar o'rnatilishi zarurdir. Keskichlar juftlikda turi, razmeri va shakli bo'yicha saqlanadi.

Detallarni bichish bo'limida keskichlar ish o'rnida qoladi. Keskich omborxonadagi ishchi smena bo'yicha ish urniga borib keskichlarni xolatini nazorat kiladi. Ta'mirlash zarur bo'lgan keskichlarni almashtiradi.

Keskichlar omborida keskichlar xisobi maxsus kartoteykalarda belgilab boriladi.

Poyabzal taglik detallari struktura jadvalini tuzish.

№	Poyabzal jinsi va turi	Qolip shakli	Birikish usuli	Poyabzal taglik detalt materiali						
				Taglik	Asosiy patak	Bikir dastak	Tumshuq osti	Yarim patak	to'ldirgich	Axi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1.	Bolalar sandaleti	32125	Sandal	CHarm		CHarm				
2.	Ayollar qayiqsimon tuflisi	857321		CHarm	CHarm	Koj-karton	Termo-plast mat.	Koj-karton S-1		Me
3.										
...										

Poyabzal taglik detallari o'rtamiyonamaydonini xisoblash

Poyabzal materiallariga bo'lgan extiyojni xisoblash uchun detallarni o'rtamiyona maydonin aniqlash zarur.

Biz bilamizka detallarni o'rta miyona maydonini aniqlash 3 usulda bajarish mumkin. Urta miyona maydoni eng sodda usuli razmer orasidagi maydonlarni xisoblash.

Misol; bolalar sandali o'rta miyona razmeri – 184.1 2.68 va 2.796 bu razmerlar bo'yicha maydoni quyidagicha aniqlanadi.

$$F_{184.1}=F_{180}+(F_{185}-F_{180})\frac{184.1-180}{5}=2.68+(2.796-2.68)\frac{4.1}{5}=2.78 \text{ dm}^2$$

SHu tenglama bo'yicha barcha detallarni materiallar bo'yicha o'rta xisobdagi maydoni aniqlanadi.

Detallarni komplektini o'rta miyona maydonini xisoblash.

№	Poyabzal jinsi va turi	Detallarni nomlanishi	Taglik detallari maydoni		
			Razmerlar		O'rta miyona maydoni
			Kichik	Katta	
1	2	3	4	5	6
1.	Bolalar sandali	Taglik	180	185	184.1
		bikir dastak	2.68	2.796	2.78
		poshna qoplamasi rant	0.86	0.86	0.81

№	Poyabzal jinsi va turi	Detal lar noml anish i	Bichilga n detallar qalinligi	Smena topshirig'i bo'yicha detailarni sof maydoni Dm ²	Bir xil qalinlikdagi detailar sof maydogi Dm ²	Bir xil qalinlikdagi detailar sof maydoni o'rtasidagi %dagi farqi
---	------------------------------	------------------------------------	-------------------------------------	---	---	--

1	2	3	4	5	6	7
1.	Erkaklar qo'njsiz bot.	Tagli k	3.5	1648	4852	37.9
2	Ayollar tuflisi	Tagli k	3.5	3153.8		
3	O'smirlar qo'njsiz bot.	Tagli	3.3 2.2	2312 1724	2312 1724	18.1 13.5
4	Ayollar tuflisi	k As.	2.0	1474	3840	30.5
5	Erkaklar qo'njsiz bot.	Patak As. Patak As. Patak	2.0	2426		
					12787	100%

Elimlash usulida poyabzal taglik detallari bikir charm materialini sirt qismidan foydalanish foizini aniqlanadi.

Kategoriya 3.6-4.0 2-sort.

$$R_{3.5}=29.5$$

$$P_{3.3}=27.5$$

$$P_{2.2}=12+7.5+1.05=2055$$

$$P_{2.0}=77.55\%$$

F_{brutto} charmga bo'lgan extiyojni aniqlaymiz.

$$F_{brutto}=\frac{F_{netto}}{R_{3,5}}*100=\frac{4852}{29.5}=16447 \text{ Dm}^2$$

$$P_{3.3}=\frac{F_{netto}}{F_{brutto}}*100=\frac{2312}{16447}*100=14.06\%$$

Taqqoslash. $27.5-14.06=13.44\%$ ortdi

$$P_{2.2}=\frac{F_{netto}}{F_{brutto}}*100=\frac{1724}{16447}*100=10.48\%$$

Taqqoslash. $(20.55+13.44)-10.48=23.51\%$ ortdi

$$P_{2.0}=\frac{F_{netto}}{F_{brutto}}*100=\frac{3899.45}{16447}*100=23.71\%$$

Taqqoslash. $23.51-23.71=-0.2\%$ ortdi

Sof maydonlari bo'yicha aniqlaymiz

$$F_{netto}=\frac{F_{brutto}*P_{3.3}}{100}=\frac{16447*27.5}{100}=4523 \text{ Dm}^2$$

Taqqoslash $4523-2312=2211$ ortdi

$$F_{netto}=\frac{F_{brutto}*P_{2.2}}{100}=\frac{16447*20.55}{100}=3380 \text{ Dm}^2$$

Taqqoslash $(3380+2211)-1724=3867$ ortdi

$$F_{netto}=3867-3899=-32 \text{ Dm}^2 \text{ yetmadi.}$$

Bikir charm materiallariga bo'lgan extiyojni xisoblagandan so'ng quyidagi xulosa jadvaliga ko'rsatkichlar kiritiladi.

№	Poyabzal jinsi va	Detallar nomi	Bichilgan detallar	Bir xil qalinlikdagi	Bir xil qalinlikdagi	Oldingi zonadan	Ushbu qalinlikdagi	Qoplan
---	----------------------	------------------	-----------------------	-------------------------	-------------------------	--------------------	-----------------------	--------

1	turi		qalinligi	detallar sof maydoni yig'indisiga extiyoj Dm ²	detallarni xisob bo'yicha chiqishi	qolgan qoldiq Dm ²	detallar chiqishi mumkinligi		qopladi
							%	Dm ²	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Erkaklar qo'njsiz bot.	Taglik	3.5	4852	4852	-	29.5	4852	4852
2	Ayollar tuflisi	Taglik	3.5						
3	O'smirlar qo'njsiz bot.	Taglik	3.3	2312	4523	2211	14.06	4523	2312
4	O'smirlar qo'njsiz bot.	As. Patak	2.2				10.48		
5	Ayollar tuflisi	As. Patak	2.0				23.51		
6	Erkaklar qo'njsiz bot.	As. Patak	2.0						

Sun'iy va sintetik nocharm materiallariga bo'lgan extiyojni xisoblash

Ma'ruza rejasi:

1. Sun'iy va sintetik nocharm taglik materiallariga bo'lgan extiyojni xisoblash
2. Poyabzal tagligi uchun barcha materiallarigi bo'lgan extiyoj xulosa jadvali.

Nocharm materiallariga bo'lgan extiyojni smena quvvati bo'yicha xisoblanadi va razmer ko'rsatkichlarini inobatga olib plastinalar, listlar, rulonlar soniga bo'lgan extiyoj aniqlanadi.

Ushbu tenglama orqali extiyoj xisoblanadi.

$$F_{\text{brutto}} = \frac{F_{\text{netto}}}{R} * 100$$

Bu yerda: F_{netto} – smena bo'yicha materiallar sof maydoniga bo'lgan extiyoj.

R – maeriallardan foydalanish foizi xisob natijalari quyidagi jadvalga kiritiladi.

Poyabzal tagligi nocharm materiallariga bo'lgan extiyoji xisobi quyidagi jadvalga kiritiladi.

№	Poyabzal jinsi va turi	Qolib shakli	Biriktirish usuli	Detallar nomlanishi	Detallar qalinligi	Detallar komplekti o'rta xisobdagi maydoni	Smena topshirig'i	navi	Smena bo'yicha sof maydon extiyoji
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.	Erkaklar qo'njsiz etigi	911274	Quyma	As.patak (koj.kart) tumshuq osti	2.4 0.9	3.846 2.162	700	1	2692.2 1513.4
2.	Ayollar tuflisi	857321	Elimlama	(termoplast)					

Poyabzal tagligi uchun barcha materiallarigi bo'lgan extiyoj quyidagi xulosa jadvaliga kiritiladi.

№	Materiallar nomi	Navi	Yil bo'yicha extiyoj	CHarm kategoriyasi	CHarm material eni,	CHarmda, listda, plastinada materiallarga extiyoj
---	------------------	------	----------------------	--------------------	---------------------	---

			brutto		razmeri urtacha maydoni	Smena bo'yicha	Yil mobaynida
1	2	3	4	5	6	7	8
1.	Bikir charm	2	2110446	3.6-4.0	145	62	14598
2.	CHarm karton	1	1119323	Sirt 2nav	800x800	79	18648
3.	Termoplastik material	1	493589		120	19.3	4114

Taglik materiallarini bichish texnologik jarayonini izoxlash.

Ma'ruza rejasi:

1. Taglik materiallarini bichish texnologik jarayoni
2. Taglik materiallarini bichish uchun ishchilar va uskunalarga bo'lgan extiyojni xisoblash

Taglik materiallarini bichish texnologik jarayonlari -charm buyumlar ishlab chiqarish jarayoni sxemasini loyixalash uslubiy qo'llanma, poyabzal ishlab chiqarish texnologiyasi namunaviy dastur va sanoat ishini o'rganish asosida tuziladi. Nocharm materiallarni bichishda ko'p detallik va sektsiyalik keskichlarni qullash, materiallardan unumli foydalanish uchun texnologiyani takomillashtirish, o'ram materiallarni to'shamasdan bichishga e'tibor berish zarurdir.

Poyabzal ishlab chiqarish tsexlari oqimlari kamponovkasini tuzish.

Ma'ruza rejasi:

1. Poyabzal ustki detallarini bichish tsexi komponovkasini tuzish.
2. Poyabzal taglik detallarini bichish tsexi komponovkasini tuzish.


Kamponovka – bu tsexda poyabzal oqimlarini joylashishini ratsional planini ishlab chiqish. Buyum ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini qisqa yo'lini

ta'minlash, ish joylarini maqsadga muvofiq joylashtirish, ishlab chiqarish maydonlardan tejamkorlik bilan foydalanishdan iborat. TSexda oqimlarni kamponovkasini maqsadga muvofiq variantini tuzish va samaradorligini oshirish avvalam bor buyum tayyorlash texnologik jarayonlari zamonaviy usullarini tanlash, tsex o'lchamlari, ustunlar joylashishi, bino turi, omborxonalar joylashishi, tayyorlov, yordamchi, yig'uv tsexlar, materiallar xarakat sxemasiga bog'liqdir.

Poyabzal ustki va taglik detallarini bichish tsexi komponovkasini tuzish.


Poyabzal yig'ish tsexi komponovkasi qaraganda biroz murakkabdir. Bunga sabab taqsimlash bazasini joylashtirish murakkab. Kamponovkada albatta yuk oqimlari xarakat sxemasi, transport qurilmalarini turi bichish oqimi va ishlov berish oqimi uchun tanlash, tsex material omborxonalariga yaqin joylashtirish, yig'ish oqimida yarim tayyor maxsulotlar xarakat sxemasini tanlash, ishlov berilmagan va ishlov berilgan detallarni saqlash omborxonalarini nazarga olish kerak.

Ustki materiallarni bichish tsexida yuk oqimlari sxemasini yopiq qobig'li va to'g'ri shaklda tuzish mumkin



U sxemada materiallar ishlab chiqarish partiyalari taqsimlash bazasidan konveyrga ishchilarni ish joyiga uzatadi. Material bichiladi, bichilgan detallar shu konveyr bo'yicha tsexni oxiriga juftlash bo'limiga uzatadi va lift orqali poyabzal yig'ish tsexiga uzatiladi.

Yuk va ishchilar bemaolol xarakatini taminlash uchun material ishlab chiqarish




Yopiq qobig'li yuk oqimlarini sxemasida materiallar ishlab chiqarish partiyalari taqsimlash bazasidan konveyrga ishchilar ish joyiga uzatiladi. Material bichiladi va xuddi shu konveyrdan juftlash bo'limiga uzatiladi.


Agar taqsimlash baza va juftlash bo'limi tsexni bir tomonida joylashsa yuk oqimlarini yopiq qobig'li sxemasini tashkil etadi.

Juftlangan detallar lift orqali yig'uv tsexiga uzatiladi.

Taglik detallarni bichish tsexi oqimlari xam to'g'ri yo'nalish va yopiq qobig'li sxemasidan iboratdir.


Yuk oqimlarini to'g'ri yo'nalish sxemasi





Material ishlab chiqarish partiyalarini taqsimlash bazasidan teleshka orqali ish joyiga uzatiladi. Bichish bo'limida konveyr o'rnatilgan bo'lib, shu konveyr orqali belgilangan detallar oraliq juftlash bo'limiga uzatiladi. (PKO). Oraliq juftlash bo'limidan detallar ishlov berish bo'limi konveyriga uzatiladi. Detallarga ishlov berilgandan so'ng markaziy juftlash bo'limiga, u yerdan poyabzal yig'ish tsexiga lift orqali uzatiladi.

Yuk oqimlarini yopiq qobig'li sxemasi.



Material ishlab chiqarish partiyalari taqsilash bazasidan (RB) teleshka bilan ishchilar ish joyiga uzatiladi. Bichish bo'limida detallar xarakati uchun konveyr o'rnatilgan. Uzatish konveyri orqali oraliq juftlash bo'limiga uzatiladi. U yerdan detallarga ishlov berish konveyriga uzatiladi. Ishlov berilgan detallar markaziy juftlash bo'limida juftlanadi va lift orqali poyabzal yig'ish tsexiga uzatiladi.